

“AVMU” MOSH NAVLARINING URUG‘LARIGA “FITOVAK” IMMUNOSTIMULYATORI BILAN ISHLOV BERISHNING HOSILDORLIK KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRI

Y.A.Abdug‘aniyeva

Buxoro davlat tibbiyot instituti,
yulduz_abduganiyeva@bsmi.uz

Mosh ekini dukkakgi bir xil vaqtda yetilmaydi. Dastlab, pishgan dukkaklar qorayadi, so‘ngra donlar o‘z naviga xos tusga kiradi. Yetilgan dukkaklarning 75 foizi qismi yetilganda o‘rim-yig‘im boshlanadi. Katta maydonlarda yetishtirilgan mosh ekinini eng qulay o‘rish usuli ikki fazada-oldin o‘rib keyin qayta jihozlangan SK-5, Keys yoki JBA35 va boshqa rusumli mashinalarda o‘tkazilib, bir paytning o‘zida dastlab ketiladi. O‘rib olingan mosh dastlab 3-4 kun davomida yaxshilab quritiladi va keyin yanchib olinadi. Chorva mollariga pichan uchun ekilganda o‘simliklar hammasiga gullaganda yashil massasi o‘riladi. Quritib, yanchilgan va tozalangan urug‘lar namligi 10-15% dan ortiq bo‘lmagan holda qoplarda yoki to‘kilgan holda shamollatiladigan xonalarda saqlanadi. Iyul oyida ekilganda nisbatan 3-4 s/ga ko‘p hosil olinadi [1;5-24 b].

Ekinlar orasidan dukkakli o‘simliklar muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda uchrayotgan ko‘pgina muammolarni hal qilish uchun qishloq xo‘jaligida biologik resurslar ishlab chiqarishni, to‘liq-kuchaytirish amino kislotalar bilan taminlanishi, iqtisodiyot, energiya, qimmatli oziq-ovqat va ozuqa tarkibi muhim masala hisoblanadi. Mazkur o‘simliklar eng arzon va eng sifatli oqsillarga boy bo‘lib, organizm uchun juda foydalidir. Dukkakli ekinlar tuproqning unumdorligini yaxshilash xususiyatiga ega o‘simliklar bo‘lgani uchun mavjud bo‘lgan atmosferadagi azotni o‘zlashtirib tuproq unumdorligini oshiradi [2;1-25 b].

Sho‘rlanish darajasi o‘rtacha bo‘lgan tuproq sharoitida “Fitovak” immunostimulyatorini turli muddatlarda qo‘llab, moshning o‘sish va rivojlanishidagi fiziologik jarayonlariga qanday ta’sir etishini bilish maqsadida 2024-yilda tadqiqot

ishlari olib borildi. Moshning bo'yi, hosil shoxi, hosil elementlarining to'planishi, bir tupdagi yetilgan dukkaklar soni, har oyning birinchi o'n kunligida o'simlik vegetatsiyasining boshidan to oxirgi pishish davrigacha yorliqlar osilgan o'simliklarda tadqiqot ishlari olib borildi.

Olingan tadqiqot natijalariga ko'ra, ushbu navlar orasidan dukkak uzunligi tajriba tizimiga mos ravishda nazorat variantlari 9,2; 9,3; 8,9; 8,9; 9,6; 9,5; 9,2; 8,7; 9,2; 9,1; 10,5; 9,4; 9,0; 9,1 sm larni, stimulyator bilan ishlov berilgan navlar 9,4; 9,5; 9,1; 9,2; 10,0; 9,8; 9,4; 9,0; 9,4; 9,3; 10,8; 9,7; 9,5; 9,6 va 9,5 sm larni tashkil etdi. Mazkur variantlar ichidan eng yuqori natijalar 2001, 1680, 1681 navlarida kuzatilib, nazorat bilan solishtirildi. Ular orasidagi farq ushbu ketma-ketlik bo'yicha 0,3; 0,4 va 0,3 smga "Fitovak" preparati bilan ishlov berilgan navlar uzunroq ekanligi aniqlandi.

Shungdek, moshning dukkaklaridagi urug'lar soni ham tajriba davomida aniqlanganda, "AVMU" mosh navlari ichidan eng yuqori natija 14, nazorat variantida 13 ta, eng past natija esa nazorat variantlari ichda 9 ta, tajriba navlari ichidan 10 ta bo'lganligi kuzatildi.

Yuqorida keltirilgan tajriba tizimiga muvofiq 2001 "AVMU" mosh navida eng yuqori natija, 1683 "AVMU" mosh navlarida esa eng past natija ko'rsatganligi qayd qilindi.

Mosh ekinining hosil ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan 1000 dona urug' og'irliklari ham tadqiqot davomida o'rganildi va nazorat variantlari birinchi variantdan o'n beshinchisi variantgacha bo'lgan natija 623 gr dan 698 gr, stimulyator ta'sir ettirilgan navlarda 625 gr dan 750 gr oralig'idagi natijalar qayd qilindi. Bular orasidan eng yuqori natijani AVMU 2001 navi 872gr, nazoratda 846 gr, past natija esa AVMU 1683 navida 525 gr, nazorat variantida esa 422 gr ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar taqqoslanganda 2001 navi nazorat varianti stimulyator ta'sir ettirilgan o'simlikdan 26gr ga yengil ekanligi kuzatildi.

Shuningdek, tadqiqot ishi 30 ta paykal va uch qaytiriqda olib borildi. Tajriba maydonining 15 ta paykalida nazorat variantlar, qolganida "Fitovak" preparati ta'sir

ettirilgan navlarni tashkil qildi. Tadqiqot yakunida hosildorlikni aniqlashda har bir qaytariqlar hisoblab chiqildi va ularning oʻrtacha miqdori gektar hisobiga aniqlandi.

Quyidagi hosildorlik natijalariga koʻra, AVMU 2001, 1680 hamda 1681 navlarida eng yuqori koʻrsatkichlar aniqlanib, ular mos ravishda nazoratda 18,3; 17,9 va 17,8 s/ga ni tashkil qilgan boʻlsa, tajriba variantlarida 18,4; 18,3 va 18,1 s/ga boʻlganligi aniqlandi. Mazkur 15 xil navlar orasidan AVMU 1683 navida hosildorlik past boʻlib, nazoratda 16,5; “Fitovak” preparati bilan ishlov berilgan navda esa 17,0 s/ga ekanligi qayd qilindi.

“Fitovak” preparat vositasi moshning fiziologik hamda biokimyoviy himoya reaksiyalarini kuchaytirib, agrotsenozdagi passiv imunitetni aktiv holatga keltirishi va oʻsuv davrining oxirigacha mavsumiy chidamlilikni oshirish xususiyatiga ega. Bunga koʻra, hosildorlik koʻrsatkichlari eng yuqori boʻlgan AVMU 2001, 1680 va 1681 navlar nazorat variantlari bilan solishtirilganda +0,2; +0,4 hamda +0,3 s/ga miqdorida oshganligi aniqlandi.

Oʻrganilgan tadqiqot ishidan shu maʼlum boʻldiki, “Fitovak” preparat vositasi mosh oʻsimligining hosil koʻrsatkichlari va hosildorlik sifatini yanada yaxshilanishiga olib keldi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish joizki, “AVMU”ning barcha navlari industrial tipdagi boʻlib, mexanizatsiya metodi yordamida hosilni yigʻish uchun yaroqlidir. Shuningdek, moshdan oziq-ovqat oqsilga va boshqa foydali moddalarga boyligi sababli undan turli taomlar tayyorlash mumkin. Ayniqsa undirilgan moshdan tayyorlangan salatlar inson organizmi uchun juda foydali hisoblanadi. Bundan tashqari, asosiy hamda takroriy ekin sifatida mosh yetishtirish ekinlar diversifikatsiyasiga yordam beradi va qisqa muddat ichida daromat keltiradi. Mosh ishlab chiqish sanoatini rivojlantirish fermentlarning daromatini va aholining farovonligini oshirish uchun mahaliy bozor va eksportga yoʻnaltirilgan istiqbolga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Атабаева.Х.Н, Идрисов.Х.А. мош етиштириш технологиясини такомиллаштириш. Монография Фарғона: 2021- Б.5-24
2. Australian mung bean association. Mungbean management manual 2nd edition.2015.P.1-25.
3. <https://www.agro.uz>
4. <http://wwwlibrary.ziyonet.uz.2020>.